



Ўзбекистон Республикаси
Қурилиш ва
уй-жой коммунал
хўжалиги вазирлиги.

№ 5976-9265-8f1e-1963-4293-9034-7011
Хужжат яратилинган сана: 2023-12-29
Ариза рақами: 104827567

Хужжат берилган: "DREAM HOUSE DESIGN"
MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
СТИР: 304923446

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚУРИЛИШ ВАЗИРЛИГИ

Тошкент шаҳар Қурилиш бош бошқармаси

Лойиҳа-смета ҳужжатларини келишиш бўйича Архитектура ва шаҳарсозлик кенгаши ишчи
органининг

2023-12-30 даги 104827567 -сонли

ХУЛОСАСИ

т/р	Тақдим этиладиган маълумотлар	
1.	Ариза рақами:	104827567
2.	Мурожаат этувчи Лойиҳа ташкилотининг номи:	"DREAM HOUSE DESIGN" МЧЖ
3.	Лойиҳа-смета ҳужжатларининг буюртмачиси номи:	"DI GROUP SPECIAL" МЧЖ
4.	Объект манзили:	Чилонзор тумани, Новза кўчаси, 8 - уй
5.	Лойиҳа-смета ҳужжатларининг номланиши:	ТОШКЕНТ ШАХРИ, ЧИЛОНЗОР ТУМАНИ, НОВЗА КУЧАСИ 8-УЙ МАНЗИЛИДА "DI GROUP SPECIAL" МЧЖ ГА ТЕГИШЛИ ХУДУДДА УЗ ЕР УЧАСТКАСИДА, ПАСТКИ КАВАТЛАРИ САВДО ВА МАИШИЙ ХИЗМАТ КУРСАТИШ МАЖМУАЛАРИ ЖОЙЛАШГАН КУП КВАРТИРАЛИ ТУРАР ЖОЙ СИФАТИДА ИХТИСОСЛАШТИРИБ КАЙТА ҚУРИШ УЧУН ЭСКИЗ ТАКЛИФ ЛОЙИХАСИ
6.	Архитектура-режалаштириш топшириғининг реквизитлари:	1726-1726294-92127

Лойиҳани кўриб чиқиш натижаси

т/р	Категория	Натижа	Изоҳ
1.	Сўровноманинг тўғри тўлдирилганлиги:	Ижобий	
2.	Объект бош режасининг ечими тўғри топилганлиги:	Ижобий	
3.	Объектнинг меъморий ечими тўғри топилганлиги:	Ижобий	

4.	Лойиҳада автотураргоҳ масаласи ҳал этилганлиги:	Ижобий	
5.	Қурилиш чизиғига амал қилинганлиги:	Ижобий	
6.	Ситуацион планда аниқ кўрсатилганлиги:	Ижобий	
7.	Ёнғин ҳавфсизлиги ва санитария талабларига амал қилинганлиги:	Ижобий	
8.	Лойиҳада имконияти чекланган шахсларинг манфаатлари ҳисобга олинганлиги:	Ижобий	
9.	Лойиҳада энергиясамарадорлик талабларига амал қилинганлиги:	Ижобий	
10.	Лойиҳа ташкилоти лицензия орқали рухсат берилган соҳа доирасидан ташқари объектнинг лойиҳаси ишлаб чиқилганлиги:	Ижобий	
11.	АРТ талабларидан четга чиқиш:	Ижобий	

Алоқадор ташкилотларнинг хулосалари:

Ҳудудий ёнғинга қарши назорат хизмати: Келишилган;

Кўшимча маълумотлар: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi “Arxitektura va qurilish sohasidagi davlat xizmatlari ko‘rsatishning ayrim ma‘muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 200-son qarorining 4-ilovasi “Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti”ga asosan loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha, Chilonzor tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limining № 23/32-1526-sonli X U L O S A S I 2023-yil 05-dekabr Toshkent sh. Toshkent shahar Chilonzor tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi tomonidan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi “Arxitektura va qurilish sohasidagi davlat xizmatlari ko‘rsatishning ayrim ma‘muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 200-son qarorining 4-ilovasi “Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti”ga asosan, “my.gov.uz” YalDXPdan 2023-yil 04-dekabr kuni №104827567-unikal raqamli murojaat kelib tushgan bo‘lib, unda, Chilonzor tumani Novza ko‘chasi 8-uy yonida joylashgan “DI GROUP SPECIAL” MChJga qarashli hududda “Pastki qavatlarida savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmualari joylashgan ko‘p kvartirali turar joy” sifatida ixtisoslashtirib qayta qurish bo‘yicha “DREAM HOUSE DESIGN” MChJ tomonidan ishlab chiqilgan “eskiz” loyihasi o‘rganib chiqib xulosa berish yuzasidan berilgan murojaat ko‘rib chiqildi. O‘rganish natijastga ko‘ra, Eskiz loyihani ko‘rib chiqish natijasiga ko‘ra O‘z.Respublikasida amalda bo‘lgan shaharsozlik norma va qoidalarida belgilangan yong‘inga qarshi talablarni ishchi loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda inobatga olish maqsadga muvofiq. Shuningdek, O‘z.Res Shaharsozlik kodeksining 60-moddasiga asosan ob‘ektning loyiha-smeta hujjatlari shaharsozlik hujjatlari, shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiq ishlab chiqilib DYon bilan kelishish hamda ShNK-1.03.01-16 me‘yoriy hujjatining 5.9-bandiga asosan yong‘in xavfsizligi bo‘yicha majburiy ekspertizadan o‘tkazilishi tavsiya etiladi. Chilonzor tumani FVB;

Ҳудудий санитария-эпидемиология хизмати: Келишилган;

Кўшимча маълумотлар: O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi xuzuridagi Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qumitasi Toshkent shahar boshqarmasining Chilonzor tumani bo‘limi Sizning 4.12.2023 yildagi 104827567-sonli murojaat xatingizga asosan Chilonzor tumani, Novza ko‘chasi, 8-manzilda joylashgan «DI GROUP SPECIAL» MChJga tegishli xududida pastki qavatlarida savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmualari joylashgan ko‘p kvartirali turar joy sifatida ixtisoslashtirib qayta kurish qilish bo‘yicha “DREAM HOUSE DESIGN” MChJ tomonidan ishlab chiqilgan dastlabki “eskiz” loyixasiga xulosa berish yuzasidan kelib tushgan murojaatni, xizmat vakolati dorasida ko‘rib chiqildi.

“O‘zbekiston Respublikasi axoli yashash joylarini atmosfera xavosini ximoya qilish to‘g‘risida”gi San KvaM 0350-17 va ShNK 2.07.01-03 talablari bo‘yicha o‘rganish ishlari olib borildi. San KvaM 0350-17 va ShNK 2.07.01-03 talablariga ko‘ra javob berilishi sababli Chilonzor tumani, Novza ko‘chasi, 8-manzilda joylashgan «DI GROUP SPECIAL» MChJga tegishli xududida pastki qavatlarida savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmualari joylashgan ko‘p kvartirali turar joy sifatida ixtisoslashtirib qayta kurish qilish SanKvaM va ShNKlar talablariga amal kilgan xolda tashkillashtirishga e‘tiroz bildirmaydi.;

Бош архитектор: O‘zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi;



Маъқулланди:

1. Хулоса берувчиларнинг хулосасида кўрсатилган талабларни бажариш, қўшнилар билан келишиш, қўшимча автогурааргох ташкил этиш шarti билан лойиҳа ишларини давом эттириш.

2. Лойиҳалаш жараёнида мулкдор томонидан қонунида белгиланган тартибда қўшимча ер майдони олиш чоралари кўрилсин ҳамда ушбу хуудда АРТ ва рухсатномада кўрсатилган талабларни бажариш ҳамда ШНҚ 2.07.01-03*нинг 183 банди 19 иловаси ва ШНҚ 2.07.01-03*нинг 30 банди 5-жадвали, ШНҚ 2.08.01-2019 нинг талабларини инобатта олиш шarti белгиланди.

Куйидаги талаб ва шартлар белгиланди: Лойиҳада келишиб берилган барча бино ва иншоотларда тунги ёритиш тизимини ўрнатиш талаби белгилансин ва ушбу талаб лойиҳада кўрсатиб ўтилсин.

Кенгаш аъзолари томонидан юқорида кўриб чиқилган лойиҳалар юзасидан ШНҚ асосида хар бир берилган талаб ва шартлар тегишлилиги бўйича назоратга олиш ва ушбу ишлар амалга оширилмагунга қадар Тошкент шаҳар қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги соҳасида назорат қилиш инспекцияси бино фойдаланишга қабул қилинмаслиги назоратга олсин.

"Худудий электр тармоқлари" АЖнинг Тошкент шаҳар филиали, "Hudud gaz royxatx" газ таъминоти филиали, Тошкент шаҳар "Сув таъминоти" МЧЖ директорлари хар лойиҳани аниқ ҳисоб китобларга таянган ҳолда юкламалар яратиш шартларини аниқ белгилаб берсин. Белгиланган меъёрлардан ошқича юкламаларда ишлаётган хуудларда коммуникация тармоқларига уланишга йўл қўймасин.

Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлигининг Тошкент шаҳар бошқармаси хар бир хуудни ўганиб, юқоридаги хар бир лойиҳалар учун иқлим шаронтига мос бўлган айланаси 18 смдан, баланлиги 3 метрдан кам бўлмаган дарахтлар, 6 литрдан кам бўлмаган буталар экилишини назорат қилсин. Лойиҳалаш жараёнида атроф муҳитга таъсир кўрсатилиши тўғрисидаги баёнот лойиҳаси (ЗВОС) олиш шarti белгилансин.

Лойиҳада муҳандислик тармоқларининг юкламалари инобатта олган ҳолда техник шартлар олиш ва ушбу техник шартлар талабларини бажариш ҳамда уларга туташ хуудларнинг қўқаламзорлаштириш (дарахтлар, буталар, бошқа ўсимликлар ва навихолларни экиш) майдонлари лойиҳа учун ажратиладиган ер участкалари умумий майдонинг 25 фоиздан кам бўлишига йўл қўйилмаслик талаби белгилансин.

Юқоридаги кўрсатилган талаблар бажарилмаган тақдирда ва ер майдонидан чиқиб кетган ҳолда лойиҳа хужжатлари ишлаб чиқилган ҳолат аниқланган тақдирда хулосалар бекор қилиниши ва ушбу ҳолатга маъсул лойиҳа ташкилоти эканлиги белгилаб қўйилсин.

Лойиҳа ташкилотлари томонидан лойиҳалаштириладиган биноларда углеводородлар ва электр энергияси истеъмолини камайтириш мақсадида, энергия тежамкор қурилиш материалларидан фойдаланиш, иссиқ сув таъминоти, ёритиш ва бивалент иситиш тизими учун фотозеллектрик тизимлар, гелиоколлекторлар ва иссиқлик насосларини ўрнатиш, муҳандислик тармоқларини ҳам инобатта олинсин.

Ушбу хулосалар қурилиш ишларини олиб борилишига асос бўлмаслигини ва хулоса талаблари тўлиқ бажарилмаган тақдирда берилган хулосалар ўз кучини йўқотиши ҳақида огоҳлантирилсин.

Лойиҳаларни кўриб чиқиш натижаси бўйича мутасадди бошқармалар ўз йўналиши бўйича маъсул эканлиги белгилаб қўйилсин.

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу ҳужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Ҳужжат ҳақиқийлигини gero.gov.uz веб-сайтида ҳужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.

7829

